



## ARTICLE INFO

Received: 21<sup>st</sup> December 2022  
Accepted: 29<sup>th</sup> December 2022  
Online: 31<sup>st</sup> December 2022

## KEY WORDS

*Ona tili va o'qish savodxonligi, maqollar, hikmatli so'zlar, so'z boyligi, nutq o'stirish, o'quvchilar, bilim.*

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi amalda joriy qilindi. Milliy o'quv dasturi asosida 2020-2021-yildan boshlab umumta'lim maktablarida " Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o'qitishdagi yondashuvning o'zgarishi bo'ldi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligini yaratish jarayoniga mahalliy mutaxassislar, amaliyotchi o'qituvchilar bilan birgalikda YUNISEF ning xalqaro eksperti Syuzan Ianuzzi ham ishtirok etdi. <sup>1</sup> "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi mukammal tarzda ishlangan bo'lib, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, o'qib tushunish qobiliyatlarini ham shakllantirishga qaratilgan. Unda, asosan, rasmlar bilan ishlash, berilgan rangli suratlar hamda maqol, topishmoqlar bolalarni dunyoqarashini kengaytiradi, bunda o'quvchi, asosan, o'zi bilan o'zi ishlaydi, ya'ni aytib o'tilgan suratlardan

<sup>1</sup> Respublika ta'lim markazi Axborot xizmati

## 2-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLIGIDAGI MAQOLLAR USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

**Ergasheva Mohinur**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7498290>

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi hamda shu darslikdagi maqollar ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini o'stirishi, mantiqiy fikrlashga o'rgatish haqida mulohazalar keltirilgan.*

matn, hikoyalar tuzadi, berilgan maqollarni esa shunchaki o'qib ketmaydi-da, uni sharhlashga urinadi, mag'zini chaqishga harakat qiladi. Albatta, bu - o'quvchilarni keng qamrovli bilim, fikrlash doirasini boyitish, nutqini o'stirish va uni hayotga tatbiq qila olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Darslikda maqollar ham o'z o'rnida ishlatilgan. Maqol-xalq og'zaki ijodi janri bo'lib, "Otalar so'zi" deb ham yuritiladi. U yillar mobaynida sayqallanib, ixcham shaklga keltirilgan pandnomadir.

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, o'y-fikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, lo'nda bayon etishga o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab



olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va soʻz boyligini ham oshirishga koʻmaklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi<sup>2</sup>. Maqollar har sohada, ayniqsa, pedagogika sohasida alohida ahamiyat kasb etadi. Taʼlim-tarbiya jarayonida, oʻquvchilar bilan ishlashda maqollar orqali oʻqituvchi nutqini goʻzallashtirib, tinglovchilarni oʻz nutqiga jalb qilib oladi.

2-sinf “Ona tili va oʻqish savodxonligi” darsligi ham oʻziga xoslikka ega. Bir mavzu berilib, uning ortidan hikmatli soʻz, maqollar berilgan. “Vatanparvarlik nima?” boʻlimida “Oʻzga yurtda shoh boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl”, “Vatanga falokat-oʻzingga halokat”, “Suvni bersang elga, yosharasan ming yilga”, “Bulbulga bogʻ yaxshi, kaklikka - togʻ”, “Kuch birlikda” kabi maqollar keltirilgan. Ularda Vatanga boʻlgan muhabbat, ahillik, saxiylik va baxillik kabi insoniy fazilatlar haqida maqol orqali oʻquvchi ongiga singdirib boriladi. Yuqoridagi birinchi va ikkinchi maqollar ona yurt, uni koʻz qorachigʻiday asrab-avaylash, oʻzga yurtni havas qilmay, oʻz yurtining ravnaqi uchun harakat qilib, uning ertangi kuniga hissa qoʻshadigan kelajak avlod boʻlib yetishib chiqish, maqolda aytilganidek, begona yurtning shohi boʻlgandan oʻz ona tuprogʻida oddiy inson boʻlish afzalroqligi gavdalangan.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham taʼlim tizimiga alohida eʼtiborini qaratmoqda va taʼlim tizimiga yangi oʻzgarishlarni tatbiq qilmoqda. Shuningdek, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Taʼlim toʻgʻrisida” gi qonun oʻz kuchini yoʻqotib, u yanada

sayqallanib 2020-yil 23-sentabr kuni “Taʼlim toʻgʻrisida” gi qonunni imzoladi. Darhaqiqat, taʼlimsiz kelajak yoʻq.

Darslikda “Katta boʻlsam Nobel mukofotini olaman!” boʻlimida ham maqollar berilgan: “Bilmaganni soʻrab, oʻrgangan- olim, orlanib soʻramagan- oʻziga zolim”, “Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar”, Bilagi zoʻr birni yiqar, bilimi zoʻr-mingni” singari maqollar ostida ham bir qancha maʼno-mazmun mujassam. Maqollar oʻquvchilarga tushunarli, sodda tilda yozilgan. Oʻquvchi ilm, bilim kabi soʻzlarni tushunadi, albatta, va maqolni bevosita yoyishga harakat qiladi. Bilim-saodatga eltuvchi yoʻl. Bu bilimni hech kim oʻz-oʻzidan oʻrganib qolmaydi, izlanish, soʻrash, oʻqish va takrorlash orqali bilim choʻqqisiga yetadi. Soʻrab, izlanmagan oʻziga-dushman. Kishi har qancha jismoniy quvvatga ega boʻlmasin, bilimi, ilmi yoʻq boʻlsa, oʻz oʻrnini topishi mushkul: Ilmi uy – charogʻon, ilmsiz uy – zimiston. Maqollar kishi nutqini goʻzallashtiradi, aytgan gapining taʼsirchanligi, obrazlilik oshadi. Ayniqsa, maktab oʻquvchilariga maqollar oʻrgatilishi uning nutqi ravonligi, tutilmaslik, gapda uzilishsiz davom etish, soʻz boyligini oshirish vazifalarini oʻtaydi desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

“Arslon izidan qaytmas, yigit – soʻzidan”, “Tulkining hiylasi koʻp, yaxshisi – qochmoq”, “Echki yugurib, kiyik boʻlolmas” kabi maqollar ham oʻz navbatida “Qishda uxlaydigan hayvonlar” boʻlimida berilgan, negaki, oʻquvchi boʻlim yakunida hayvonlar haqida tushunchaga ega boʻlib, maqollar orqali mustahkamlaydi. Arslon, tulki, boʻri, echki kabi hayvonlar orqali odamlardagi ayrim nuqsonli holat, xarakterlar koʻrsatib beriladi va oʻquvchi arslonning kuchli, jasur, tulkining ayyor, itning vafodorlik timsolida bilib oladi.

<sup>2</sup> “Bolalar adabiyoti” (“Oʻqituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan



«Bir yigitga qirq hunar oz,-deydi dono xalqimiz, - Tikansiz gul bo'lmas, Mashaqqatsiz - huna». Haqiqatan ham, kasb-hunar yo'qki, mashaqqatsiz bo'lsa. O'quvchi hunarlar va hech qaysi kasb yo hunarga osonlikcha erishib bo'lmasligini angelaydi: «Qunt bilan o'rgan hunar, Hunardan rizqing unar».

Qo'lida hunari bor hech qayerda qoqilmaydi, uning ortidan obro'-

e'tibor, hurmat ko'radi. «Tekin boylik axtarguncha, O'zingga bop hunar top» kabi tanbehli maqollar jajji qalblarning ong-u shuuriga juda yaxshi ta'sir qiladi va o'zi ham maqollarni gaplarida qo'llay boshlaydi, bu esa o'quvchilarning nutqini ta'sirchan, go'zal bo'lib jilolanishini ko'rsatib beradi.

## References:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism[Matn]: darslik 2-sinf uchun/K.Mavlonova [va boshqalar] -Toshkent:Respublika ta'lim markazi, 2021.-120b.
2. Respublika ta'lim markazi Axborot xizmati
3. «Bolalar adabiyoti»(«O'qituvchi» nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent,2013) darsligi
4. tashpmi.uz «Ta'lim to'g'risida»gi qonun